

“JAMOALARDA ODOB- AXLOQ MASALALARI VA UNGA OID  
BILIMLAR”

Chirchiq shahar politexnikumi

O'qituvchi: **F.O. Rasulova.**

“Tarbiya-biz uchun yo hayot, yo mamot, yo  
najot, yo falokat va yo saodat masalasidur”.

A.Avloniy.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – bu  
ta'lim-tarbiya tizimidir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat,  
ta'lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi  
deb bilgan.

Albatta, ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning  
rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan  
eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni  
o'zgartirmasdan turib ma'naviyatni shakllantirib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya  
masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunda belgilab qo'yilgan. Shu  
bilan birga bu keng jamoatchilik butun xalqimiz ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini  
talab qiladigan umummilliy masaladir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev yuksak axloqiy fazilat va chuqur bilimga  
ega bo'lmoqlik hozirgi davr talab qilinadigan asosiy fazilat ekanligi ta'kidlab o'tadilar.

Axloq — kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabat-larida  
namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan  
farkli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish

shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rinni tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlanti-rish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan — johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezungulikka, vahshiylidandan in-soniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido — yovuzlik va ezungulik, jaholat va kamolotning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqslizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloqiy me'yorlari ham bor. Bunday axloqiy me'yorlar jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Axloq – insoniyat kamoloti sarchashmalaridan biri. Har bir odam u orqali o'zining jamiyatdagi o'rnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Axloqiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, kasb axloqi madaniyatini shakllantirmasdan turib, hech bir davlat ko'zlagan maqsadlariga erisha olmaydi. Shu bois ham axloqiy, ma'naviy, kasbiy kamolot hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jamoalardagi o'zaro odob va axloq masalalari bu ancha murakkab masala hisoblanadi. Chunki jamoa azolarini turli xil xarakterga ega bo'lgan insonlar tashkil etadilar. Birov og'ir bosiq, birov jizzakiroq, birov hazilkash yana boshqasi arazchi ... Xo'sh endi shuncha xarakterli insonlarni qanday qilib bitta jamoada ishlashi yoinki boshqarish mumkin?

Albatta, buning uchun Abu Nasr Forobiyning fikrlariga murojaat qilishimiz mumkin bo'ladi. U o'zining "Fozil odamlar shahri" kitobida "har bir inson o'z tabiat bilan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirlita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, deydi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi".

Har bir jamoa a'zosi shu fikrlarni uqishi, anglashi qv to'g'ri xulosaga kelishi, jamoada esa yuksak ma'navaiy-axloqiy sifatlarini namoyon qilishlari lozim bo'ladi.

Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Odobnama" singari nomlar bilan atab kelingan. Evropada esa "Etika" nomi bilan mashhurdir. Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni 3 guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga – etika va siyosatni; uchinchi guruhga – san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va "ETIKA" (ta ethika) deb ataganlar. Hozirgi kunda bu fanni ilmiy va zamonaviy talablar nuqtai nazaridan "AXLOQShUNOSLIK" deb atalmoqda.

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. "AXLOQ" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "XULQ" so'zining ko'plik shaklidir. "Axloq" iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot ob'ektini anglatса, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va hatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini ODOB, undan kattaroq qismini XULQ, eng qamrovli qismini AXLOQ egallaydi.

ODOB – inson haqida yoqimli taassurot uyg’otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo’lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni o’z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko’y miqyosida ahamiyatli bo’lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotida sezilarli ta’sir ko’rsatmaydigan yoqimli insoniy hatti-harakatlar majmui.

AXLOQ – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo’la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig’indisidir.

Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni “axloq falsafasi” yoki “ezgulik falsafasi” deb atash mumkin.

Axloqshunoslik fanida Aflatun, Arastu, Epikur, Tsitseron, Forobiy, Ibn Sino, G’azzoliy, Kant, Hegel, Feyerbax, Nitsshe singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta’limotlar bilan birgalikda Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlari muhim o’ringa ega.

“Komil inson shunday insondurkim, unda quyidagi to’rt narsa kamolga etgan bo’lsin: yaxshi so’z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif”.

Aziziddin Nasafiy

“Adab – xulqni chiroyli qilish, so’zni va fe’lni soz qilishdir. XIZMAT ODOBI ulug’ baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amalning qabuli, tug’yonи esa amalning buzuqligidir”.

B.Naqshband.

“Ko’rdimki, eng noyob ne’mat rostgo’ylik va qahramonlik, eng og’ir og’riq esa yomon va munofiq do’stlar ekan”.

N.Kubro.

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”.

A.Avloniy.

“Bizlarni xonavayron, bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir”.

M.Behbudiy

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiylari va eng muhimlaridan biri – INSONPARVARLIK. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g’oyalar, qarashlar va e’tiqodlar majmui, shaxs erki, kadr-qimmati, uning baxtli bo’lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonch.

Foydalanilgan adabiyotlar:

A.Sher: Axloqshunoslik. Toshkent, 1996y.

E.Umarov va boshq.Estetika asoslari.. Toshkent, 2004y.

Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf. Toshkent, 2013.